

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR


DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

УЧЕНЫЙ — ТОТ, КТО
МНОГО ЗНАЕТ ИЗ КНИГ;

ОБРАЗОВАННЫЙ — ТОТ, КТО
УСВОИЛ СЕБЕ ВСЕ САМЫЕ
РАСПРОСТРАНЕННЫЕ В ЕГО
ВРЕМЯ ЗНАНИЯ И ПРИЕМЫ;

ПРОСВЕЩЕННЫЙ — ТОТ, КТО
ПОНИМАЕТ СМЫСЛ СВОЕЙ ЖИЗНИ.

LEV TOLSTOY
(1828-1910)



ОКТЯБРЬ

№45



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
15-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-15**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-15**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 45-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 10 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Boqiyev Jurabek A'zamovich
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI; RAMZLAR VA
ULARNING TASVIRIY TALQINI 7



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

XOLID HUSAYNIYNING “MING QUYOSH SHU’LASI” ASARI; RAMZLAR VA ULARNING TASVIRIY TALQINI

Boqiyev Jurabek A’zamovich

Kamoliddin behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti II kurs magistranti

Telefon: +998995272310

Jurabekboqiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbek kino san’atining rivoji va “Ming quyosh shu’lasi” asarining tasviriy yechimi ifodalangan.

Kalit so’zlar: Kino asar, dekoratsiya, ramzlar, postanovka, uslublar, professional, xarakter, rejissyor, ssenariy, badiiy, ijodiy jarayon.

Biror bir kino asarni yaratish jarayoni film ijodkorlaridan katta mehnat va mahorat talab etadi. Ayniqsa, telefilm va kinoning tasviriy yechimi ijodiy jarayonning dastlabgi va muhim bosqichi sanaladi. Kino asarni tasvirga olishdan avval u kino rassomi nuqtai nazaridan puxta o’rganiladi. Asar qahramonlari va ularning xarakteri, voqealar rivoji, dekoratsiyalar, ramzlar, ziddiyatli holatlar va kulminatsion nuqta, yechim kabi bir qancha xususiyatlar ko’rib chiqiladi.

O’zbek kino san’ati rivojlanishida A.Slagin, I.Gulenko, V.Sremyan, B.Chelli, V.Sinechenko, E.Kalantarov, S.Ziyomuxammedov, N.Rahimboev, B.Nazarov, S.Alibekov kabi postanovkachi rassomlarning o’rni katta. Ular o’ziga xos uslublari va professional yondashuvlari orqali filmlardagi deyarli har bir kadrda personaj va holatlarni yaxshi ochib bera olishgan. Bu ijodkorlar o’zlari yaratgan filmlarida badiiy lavhalar orqali dekoratsiyalar, tashqi manzaralar va fondan ko’ra qahramonlarning his-tuyg’ularini filmda yaqqol ko’rsatishga harakat qildilar. Shu sababli har bir kartina nafaqat rassom ijodini balki ularning yuksak, insoniy tarjimai holini hikoya etuvchi omilga aylanib bordi¹.

Kino asar qahramonlarining munosabatlari va xarakter xususiyatini to’la ochib berish, ularning muammolari va ziddiyatlarini ko’rsatish va tasvirdagi realligini ta’minlash bugungi kunda telefilm va kinoning tasviriy yechimi oldida turgan dolzarb mavzulardan birdir. Postanovkachi rassom ijodining nozik jihatlaridan bo’lgan, film syujetining realligini ta’minlovchi va uning ta’sir xususiyatini oshiruvchi muhim omillardan biri filmlardagi ramzlar, ishoralar va alohida belgilarni topish hisoblanadi. Bu borada o’zbek kino san’atida yaqin yillarda suratga olingan filmlarda ham ko’plab ramziy ishoralarni ko’rish mumkin.

Yolqin To’ychiev tomonidan suratga olingan “Ilova” kartinasining syujeti nihoyatda murakkab va tasavvurga singib ketishi qiyin bo’lgan rang-barang ramzlar asosiga qurilganki, bu ma’juzlarni fahmlash, ilg’ab olish oson emas. Masalan, filmning mashhur “Jakonda” portreti bilan boshlanib, yakunda shu asar tasvirlangan suratning shamolda to’zib ketishi tomoshabinni chuqur mulohazaga chorlaydi. Shuningdek, ko’cha o’rtasida odamlarga to’siq bo’lib yotgan tosh, Minotavr haqidagi afsona, zulmat xonadagi yarmi yopiq televizorlar, shaxmat o’yinining qora donalar bilan boshlanishi kabi ramziy ishoralar ham voqealar rivojida muhim o’rin tutadi.

Ayyub Shahobiddinovning rejissyorlik ssenariysi asosida suratga olingan “Kechikkan hayot” filmida pichoq bilan bog’liq ramziy detal maqsadli topilib, insoniyat boshiga o’lim, kulfat soluvchi sovuq qurol emas, mehr, samimiyat, turmush rishtalarini bog’lovchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Hotam Fayziyevning “Yozsiz yil” filmida esa yoz fasli bilan bog’liq ma’juz film qahramonlari, ayniqsa, Sobir taqdirida muhim o’rin tutadi. Ma’lumki, yoz inson umrining navqironlik paytiga

¹ Aminov H. R. Kino kompozitsiyasi. T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2017 y. 10 b.



qiyos qilinadi. Sobir esa yigitlik zavqidan mahrum, go‘yo yozdan benasib. Shu sabab uning yillari yozsiz, hayoti esa nursiz, ziyosiz. Umid, tasalli beruvchi shirin yolg‘onlarni sevadi, qora-qora, zulmat ko‘chalardan mitti nurni qidiradi¹.

Jahon va o‘zbek kino san‘atida ko‘plab ramziy ishora va belgilarni ko‘rish mumkinki, ular filming asosiy detallarini tashkil etib, syujetni ajoyib tarzda to‘ldirib boradi va filmning badiiy xususiyatlarini oshiradi.

Film yaratilishidan oldingi jarayonda rassomdan suratga olinadigan badiiy asarni yaxshilab o‘rganib, undagi ramziy ifoda va belgilarni, ularning ma‘nolari va qo‘llanilish o‘rmini aniqlab olish, bu bilan muallif nima demoqchi ekanligini o‘z chizmalarida to‘la tushuntira olish talab etiladi. Buning uchun rassom asardagi detallarni sinchkovlik bilan o‘rganishi, voqealar ro‘y beradigan xalqlar, hududlar yoki ijtimoiy guruhlarning urf-odatlarini, qarashlari, mentaliteti va alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ramzlar va belgilarining aynan nimaga ishora qilishini, o‘ziga xosligini chuqur o‘rganishi, bir-biridan yaxshi farqlay olishi kerak.

Bu borada amerikalik afg‘on yozuvchisi Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu‘lasi” asarini ekranlashtirishdan oldin asardagi ramziy ifoda va belgilarni aniqlab olish uning filmidagi ta‘sirchanligi oshirib, tomoshabinga to‘la yetkazilishiga harakat qilish kino rassomidan yuqori badiiy mahoratni va topqirlikni talab qiladi.

“Ming quyosh shu‘lasi” asari X. Husayniy ijodidagi ikkinchi yirik roman bo‘lib, undagi asosiy voqealar Tolibon hukmronligi davridagi Afg‘oniston hududida bo‘lib o‘tadi. Asarning asosiy syujeti nikohsiz tug‘ilgan va 15 yoshida turmushga berilgan Maryamning achinarli hayoti va uning 14 yoshli kundoshi Layloning atofiga qurilgan. Asarda qizning otaga bo‘lgan muhabbati, jamiyatdagi tengsizlik va nohaqliklar ayollar fojeasi, urushlarning insonlar taqdiriga ta‘siri kabi g‘oyalari aks etadi.

Asarda bir qator ramzlar va belgilar bor, ular vositasida turli hodisalar ifoda etilgan va ular orqali asarning daqiq joylarini tushunish mumkin. Ularni tasvirlash uchun rassomda birinchi navbatda tolibon hukmronligi davridagi Afg‘onistonning ijtimoiy-siyosiy holati, bu davrdagi afg‘on xalqining hayoti, o‘ziga xos urf-odatlarini, davr ruhiyati haqida yetarlicha ma‘lumot bo‘lishi lozim.

Asarning asosiy xususiyatini ochib beruvchi ramzlarning birinchisi bu – “kulba”dir. Maryam onasi – Nana bilan yashaydigan loydan yasalgan bu kulba chorva hayvonlari uchun yasalgan boshpanadan unchalik farq qilmaydi. Bu esa Nananing ayol, xizmatkor va nikohsiz bolaning onasi sifatidagi mavqei qanchalik past ekanligining ramzi hisoblanadi. Laylo uchun esa kulba Maryamning ruhi ramzidir. U Tariq bilan Kobulga ketayotganida kulbani ziyorat qilishga boradi va oxiri kulbada Laylo Maryamni hayotni sevadigan, quvnoq qiz sifatida tasavvur qiladi.

Burqa – asarda ayolning erkak kishi tomonidan, ayniqsa xotinning eri tomonidan nazorat qilinishining ramzi. Rashid Maryamga “ayolning yuzi erining ishi” deydi. U jamoat oldida ayol kishi burqa kiyishi kerakligini aytadi. Hech kimga Maryamni ko‘rishga ruxsat bermaydi. Maryamga faqat dafn marosimida ro‘mol o‘rab qo‘yiladi. Ammo boshqa barcha holatda u burqa kiyishi shart edi. E‘tiborlisi, musulmon ayollar foydalanadigan qoplama darajalari bor bo‘lib, ular ichida burqa eng qattiq qoplama hisoblanadi. Uning faqatgina ochiq joyi ayolning ko‘zlari oldida ko‘rish qismi bo‘lib, Maryam ham, Laylo ham burqaga moslasha olmaydilar. Chunki uning ko‘rish doirasi cheklangan va ular ko‘pincha burqaning etagiga qoqilib ketishadi. Avvaliga Maryam tashqi dunyodan himoyalaniшни mamnuniyat bilan qabul qiladi. Biroq, Rashidning past doiradagi fikrlashi va ayollarga nisbatan zo‘ravon munosabatda bo‘lishi burqaning har qanday ijobiy ta‘sirini yo‘q qiladi. Bu ham uning ayol va zo‘ravonlik qurboni sifatida cheklanishining ramziga aylanadi.

Tortmadagi qurol. Qurol romanning boshida, Rashidning xonasidan topib olganida paydo bo‘ladi. Aslida bu yerda qurol oilani himoya qilish uchun bo‘lishi kerak edi. Ammo, qurol Rashidning qattiq nazorati va zo‘ravonligini anglatadi. Rashid qurolni xotinlarini himoya qilish uchun emas, balki qo‘rqitish uchun ishlatadi. Rashid ularga qarata qurolidan o‘q otmaydi. Lekin, uyda odam o‘ldiradigan qurolning borligi ayollarni doimo dahshatda ushlab turadi. Rashidning Maryamga uylanishidanoq qurolning mavjud ekanligi, asar davomida tomoshabin ongini doimiy xavf borligidan ogohlantirib turadi. Sababi, Rashid berqaror odam bo‘lib, duch kelgan paytda u xotinlarini osongina o‘ldira olishi mumkin edi.

Bolalar uyi. Bolalar uyi bir vaqtning o‘zida urushayotgan qavmlar va Tolibonning Kobuldagi

¹ Kino — tan, syujet — jon. Sh. Abdurasulov «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati» gazetasi. 2013 y. № 25.



insonlarga keltirgan vayronagarchiliklari hamda qatag'onlari shu bilan birga so'nggi umid ramzidir. Mehribonlik uyi direktori Zamon bolalar uchun bu joyni iloji boricha chiroyli va qulay qilishga harakat qiladi va u yerdagilar bolalarga sevimli ota-onadek munosabatda bo'lishadi. Tolibon buyrug'iga to'g'ridan-to'g'ri qarshilik qilib, bolalarni o'qitishda davom etishadi. Ota-onalar farzandlarini och qolmasliklari uchun bolalar uyiga topshirishlari dahshatli, ammo Zamonning ota-onalar hamda bolalarga nisbatan g'amxo'rliqi va hamdardligi ularning dardini biroz yengillashtirishga yordam beradi.

Roman oxirida Toriq va Laylo Kobulga qaytib, bolalar uyini ta'mirlashga yordam berishadi. Bu joy bir muddat Layloning qizi Azizani kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta'minlagan edi. Bu paytda Laylo va Maryam esa Rashid qo'lida azob chekishgan. Laylo Azizani bolalar uyida ushlab turish bilan uni nafaqat ochlikdan, balki Rashidning zo'ravonligidan ham himoya qila oldi. Bu joy Azizaning hayoti saqlab qolinishining ramzi ham hisoblanadi.

"Pinokkio" va "Titanik" filmlari. Pinokkio - 1940-yilda suratga olingan film bo'lib, Jalil roman boshida qizi Maryamni bu filmga olib borishga va'da beradi. Lekin, asar davomida Maryam hech qachon bu filmni ko'rmaydi. Bu Maryamning onasi Nanaga Jalilni qidirishga qarshi chiqishiga olib keladi. Jalil Maryamga ota sifatida qo'lidan keladigan, u uchun qila oladigan hech bir ishni qilmaydi. Sababi, u ko'proq qizidan ko'ra boshqalar oldida uyalish va boshqalar gap-so'zlaridan qochish haqida o'ylaydi.

Roman oxirida Maryam uchun saqlab qo'yilgan qutidagi narsalar orasida ushbu film ham bor edi. Vaqt o'tib Layloga quti berilganida u nima uchun qutida Pinokkioning videotasmasi borligini tushunmaydi. Lekin, tomoshabin nima sababdan videotasma u yerda turganligini darhol angelaydi. Jalil Maryamga uzoq vaqt berishni istamagan narsasini bermoqchi edi va bu film Maryamga kechikib berilgan muhabbat ramzi edi.

1912-yilda Nyufaundlend qirg'oqlarida aysbergga borib cho'kib ketgan kema haqidagi Amerika filmi bo'lgan "Titanik" Tolibon tomonidan tomosha qilish taqiqlangan bo'lsa-da, Kobul aholisi bu filmni ko'rishga qiziqishadi. Odamlar Pokistondan bu filmning nusxalarni yashirincha olib kelishadi va asar qahramonlariga berib ketishadi. Aziza doimo Maryam bilan birga Titanikda o'ynashni orzu qiladi.

Kobuldagi bir guruh kishilar juda ko'p ochlik va vayronagarchiliklarni keltirib chiqargan qurg'oqchilik davrida qurigan daryo o'zanini egallab olishadi va "Titanik shahar"ni yaratadilar. Qurg'oqchilik tugab, daryo qaytib kelganida shahar suv ostida qoladi. Tolibon quvib chiqarilganda, Kobuldagi aholi uchun "Titanik" filmi namoyish etiladi. Bu esa axborot erkinligi va kimningdir Kobul aholisini falokatdan qutqarishiga bo'lgan umidni anglatadi.

Rassom yuqoridagi ramzlarni tasvirlashda afg'on milliy koloritidan yuqori darajada foydalanishi, tasvirlarni yorqin bo'yoqlarda korsatishi, tasvirchi va tomoshabinning e'tiborini ushbu detallarga qaratishi talab etiladi. Ramz va ishoralarni yirik planlarda tasvirlash, kulba, burqa, qurol kabi detallarni voqealar rivojidadagi o'rni va psixologik ta'sirini kuchaytirib (masalan, kulbani o'ta xaroba ahvolda tasvirlash) aks ettirish tavsiya etiladi.

"Ming quyosh shu'lasi"dagi bu kabi bo'lg'usi film lavhalaridagi ramz va belgilar vositasida postanovkachi rassom tasvirga olish ishlaridagi aniq detallarni ko'rsatish bilan birga asardagi eng asosiy g'oya va tushunchalar, kuchli ziddiyatlar va dramatik to'qnashuvlarni yaqqol namoyish etib berishga harakat qilishi lozim.

Kino sohasiga qadam qo'ygan ijodkor borki, tevarak-atrofni diqqat bilan kuzatadi, undagi asosiy jihatlar, badiiy timsol va xarakterlarni topish, hech kim bilmagan, eshitmagan voqealar asosida qiziqarli, mazmundor asar yaratishga harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Husayniy X. "Ming quyosh shu'lasi". T.; "YANGI ASAR AVLODI". 2016 y.
2. Aminov H. Kino kompozitsiyasi. T.; "IQTISOD-MOLIYA" 2017 y.
3. Aminov H. Filmning tasviriy yechimi. T.; "Chashma print". 2010 y.
4. Abdurasulov Sh. Kino — tan, syujet — jon. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. № 25. 2013 y.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 15-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиёв Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиёв Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиёв

Эълон қилиш муддати: 31.10.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000